



MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI MAVJUD BOLALAR TA'LIM Olishida UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH

Tashmetova Mohira Abduvaxidovna

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

“Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi” mutaxassisligi,

2-kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17813151>

ARTICLE INFO

Received: 1st December 2025

Accepted: 2nd December 2025

Published: 4th December 2025

KEYWORDS

inklyuziv, ehtiyoj, ta'lim-tarbiya, tizim, imkoniyat, shart-sharoit, integratsiya

ABSTRACT

Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lim tizimi ya'ni inklyuziv ta'lim tizimining takomillashuvi, va bu ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, maktabgacha ta'lim tizimidagi imkoniyati cheklangan bolalarga o'z tengdoshlari qatorida ta'lim berish va shu bilan bir vaqtda ularning ehtiyoji hamda qobiliyatlariga qarab individual yondoshish, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadi va vazifalari haqida so'z boradi.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yilning 20-may kunida tasdiqlangan 320-sonli O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim sohalariga, shu jumladan “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida” gi qaroriga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risidagi qarori asosida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olish ishlari olib borilmoqda. Ta'lim to'g'risidagi qonunning yangi tahririga 2021-yilning 19-may kuni Oliy Majlis ilk bor inklyuziv, ya'ni uyg'unlashgan ta'lim tushunchasi kiritgan. Ushbu qonun 2020-yilning 13-oktabridagi «Alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan. O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqligi bo'yicha qiyosiy tahlil ishlari o'tkazilgan va ushbu qonunning 20-moddasida har tamonlama nuqsonlari, xususan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va ruhiy tomonlama nuqsonlari alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va maktablarda inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha qator chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan. Bu qonun albattaki alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan, ya'ni salomatligida jismoniy, sezgi organlarida va yengil ruhiy, hamda aqliy nuqsoni bo'lgan va “Nogironligi bor shaxs” sifatida e'tirof etiluvchi bolalarning har tomonlama sog'lom bolalar bilan teng huquqqa ega ekanligini himoya qiluvchi hujjat sifatida ham qo'llaniladi desak mubolag'a qilmaydi. Sababi, inklyuziv ta'lim-bu alohida ta'lim-tarbiyaga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan sog'lom bolalar uchun birgalikdagi teng bilim olish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi kunda UNICEF O'zbekiston Respublikasining ta'lim-tarbiya tizimiga inklyuziv ta'limni kiritish va uni faollashtirish bo'yicha samarali sa'y-harakatlar bilan shug'ullanmoqda. Inklyuziv ta'limning vazifasi bolalarning bilim olish va boshqa qobiliyatlaridan va salomatlik borasidagi holatidan tashqari barchaga sifatli va to'liq ta'lim-tarbiya bilan taminlashdir. Shu jumladan, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olish jarayonining samarasi, hamda har tomonlama rivojlanishiga, jamiyatda ijtimoiylashuv

jarayonlarining osonlik bilan kechishiga erishish uchun avvalo bolalar oilaviy muhitda yashashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga bolalar o'z tengdoshlari bilan birga oddiy davlat yoki xususiy maktablarda tarbiyalanishlari va bilim olishlari ularni har tomonlama rivojlantirish va huquqlarini himoya qilish maqsadlariga muvofiqdir.

Inklyuziv ta'lim tizimi nogiron bolaning o'z yashash hududida joylashgan umumta'lim turudagi maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktablarda ta'lim olishda, tengdoshlari kabi turli qobiliyatlarini, iste'dodlarini rivojlantirishda, jamiyatda moslashish jarayonida qiyalayotgan bo'lsa, savodxonlikni o'rganish uchun maxsus yordam olishi, hamda hayotda orttirilgan nuqsonlar tufayli darslardan qolgan bolalarga esa maktabga qaytish uchun kerakli yordam taqdim etilishini kafolatlaydi. 2020–2025 yillarga rejalashtirilgan xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari faoliyati sifatini yanada yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Aholi o'rtasida targ'ibot ishlari olib borilishi bilan birga, inklyuziv ta'limni olib borish tizimini ham ko'rib chiqish lozim. Bugungi kunda har bir alohida ehtiyojga ega bola uchun maxsus tyutorlar yollanmoqda. Tyutorlar albatta alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarning tibbiy xulosasidan kelib chiqib tanlanishi muhim ahamiyatga ega. Misol uchun nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tyutor logopeddefektolog bo'lishi, zaif ko'ruvchilar uchun esa tiflopedagog tyutorlik vazifasini bajarishi kerak. Shu bilan birgalikga maktablarda sinf o'qituvchisi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarni maxsus pedagogikaning barcha sohalari bo'yicha malakalarini oshirish, hamda sog'lig'ida nuqsoni bor bolalarga ta'lim va tarbiya metodologiyasi bo'yicha yetarlicha bilim va ko'nikmalari bilan ta'minlasak, biz pedagog va tyutor o'rtasida hamkorlikni yanada mustahkamlagan bo'lamiz. Buning uchun esa maxsus inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish doirasida

“Malaka oshirish markazi”ni tashkil qilish birinchi ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan masalalardan biridir. Agar pedagog va tarbiyachi bolaning nuqsoniga mos keladigan o'quv-tarbiya metodlaridan habardor bo'lmasa, natija ham bo'lmasligi aniq. Agar o'qituvchi, tarbiyachi ushbu maxsus pedagogik metodlarni o'qib, o'rganganidan so'ng alohida ta'limga ehtiyoji bor bola bilan shug'ullansa, bu birinchi navbatda ta'lim-tarbiyaviy jarayonga to'g'ri yondashuv bo'ladi. buning natijasi ham pedagogning kompetentligidan kelib chiqqan holda yuqori bo'lishi barchamizga ayondir. Aynan to'g'ri yondashuv bilan bola sog'lig'ining tiklanishi ko'zda tutilgan maqsadlardan biri hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi; - dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o'qishga bo'lgan ehtiyeji va qiziqishlari ortadi;
- o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojida bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir-birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda xal etishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Nuqsoni bor bolalarni har tomonlama tarbiyash orqali ularni ona-Vatanga, tabiatga nisbatan go'zallikni his etishga, tafakkurini rivojlantirishga, bolalarning talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risidagi qarori - 4860 13.10.2020
3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013
4. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
5. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.
6. D.S.Qaxarova " Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil
7. S.M. Raxmonova DIDACTIC POSSIBILITIES OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12 <https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.
8. S.M. Raxmonova МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРГА ТАЪЛИМ БЕРИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ. Respublika OAK. Илимий-методикалық журнал 5/1 2022 y.101-105 bet
9. F.B. Umarova. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА ИНКЛЮЗИВ ТА'ЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. SCIENTIFIC PROGRESS. Scientific Journal ISSN: 2181-1601 VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2021